

“ IBTIDOIY JAMOA DAVRIDA MUSIQANING RIVOJLANISHI”

**Yuldasheva Aziza**

*O‘zbekiston davlat konservatoriyasi*

*“Musiqqa san’ati” fakulteti “Musiqashunoslik” yo‘nalishi*

*1 kurs talabasi*

**Annotasiya:** *Ushbu maqolada ibtidoiy jamoa davridan boshlab musiqa ning paydo bo‘lishi va rivojlanishi yoritilgan.*

**АННОТАЦИЯ:** *В этой статье рассматривается возникновение и развитие музыки со времен первобытного сообщества.*

**Abstract :** *This article covers the emergence and development of music from the time of the primitive community.*

**Kalit so'zlar:** *Musiqqa, ijod, kompozitor, uslub, cholg‘u.*

**Ключевые слова:** *Музыка, творчество, композитор, стиль, инструмент.*

**Keywords:** *Music, creativity, composer, style, instrument.*

Etnografik va arxeologik tadqiqotlarga tayangan ko‘plab olimlar musiqa san’ati insoniyatni ibtidoiy jamiyat davrida shakllanishi, uning bevosita mehnat va dam olish jarayoni, diniy marosimlar va harbiy yurishlar bilan bog‘liq holda rivoj topishini ta’kidlaydilar. Arxeologik qazilmalar asosida qadimgi devoriy suratlarda aks etib bitilgan chizma rasmlar orqali o‘lim marosimlarida ijro etiluvchi yig‘i-marsiyalar, harbiy marshlar, allalar, cho‘pon kuy va qo‘shiq-lari shu singari aynan ko‘plab musiqiy janrlar mavjud boigani xususida asos yaratgan. Sharq mamlakatlarning rivojlanish davrida (mil.V-III ming yil avval) musiqa madaniyatning ajralmas boigiga aylanganligiga guvoh bo‘lmamiz. Qadimgi Misr, Suriya, Shumer, Babil, Hindiston va Xitoy mamlakatlarning saroy marosimlari musiqasiz o‘tkazilmagan. Musiqaga ilohiy va afsungar qudratga ega bo‘lgan tirik jon-zotlar, xudolar, tabiat va koinotga o‘z ta’sirini o‘tkazuvchi mo‘jizakor kuch sifatida qaralgan. Bizning asrimiz boshida musiqa haqida tasavvurlarni aks ettiruvchi ko‘plab diniy, axloqiy va nazariy risolalar paydo bo‘ldi. Ko‘pincha musiqa san’atining barcha kichik boiaklari xususida, jumladan, tovushqator, parda asosi, ton va musiqiy cholg‘ular haqidagi tasavvurlar aniq timsoliy va ramziy ma’no o‘rnida izoh etilgan. Saroy va diniy maskanlarning oliy tabaqador va noziktaab musiqa san’atiga nisbatan qarama-qarshi oddiy avom xalqning soddalari qo‘shiq-kuylari, raqs va aytimlari taqqoslangan. Asta-sekin

professional musiqachilar doirasi shakllanib, ularning atrofida maktablar rivojlanib borgan. Ustoz-shogird tizimiga asoslangan bu maktablarda ustoz o'zining falsafiy, estetik qarashlari, nazariy va amaliy bilim va ko'nikmalarini shogirdlariga o'rgatgan.

Musiqqa atamasi lotin so'zidan olingan bo'lib, muzalar (ilhom parilari) san'ati degan ma'noni anglatadi. Musiqqa - ohang san'ati bo'lib, borliqni tovushlar orqali ifoda etadi. Musiqiy badiiy jarayon tovushli matn (tovush balandligi, tovush cho'zimligi, tovush tembri va jarangdorligi)ga qaratilgan. Tovushli matn - insonni eshitish taassurotlari bilan bog'liq ichki hissiy olamini aks ettiruvchi fikrni o'ziga hos obrazli talqinidir. Musiqani rivojlanish tarixi bevosita insonni hissiy qobiliyatini o'sishi (musiqani estetikasi) hamda o'zgaruvchan madaniy muhitda tovushli matnni eshitish orqali o'zlashtirish jarayoni bilan bog'lik. Yevropa musiqqa tarixining ilk davri Qadimgi Yunon madaniyati rivoji bilan bog'liqdir.

Antik (lot.so'z antiquus-qadimiy) musiqqa madaniyati katta tarixiy davrni (miloddan avval 5 asrdan, to milodimizning 3 asrigacha) qamrab oldi. Hayotga muxabbat, irodalik va hayotiylik, drammatizm hamda insonni garmonik go'zalligi antik san'atida o'z ifodasini topdi. Antik san'atining mukammal mavzusi sifatida inson tanasi tanlangan. Antik tragediyalari esa san'atni sinkretik birligini gavdalab beradi.

Qadimgi Yunon san'atini davrlanishi:

Gomer davri ("Gomer Yunonistoni" mil. avval 1050 yillar – VIII asrga qadar);

Arxaik davr (mil.avval VII asr – mil.avval V asrga qadar);

Klassik davr (mil.avval V asr – mil. avval IV asr o'rtalarigacha );

Ellinistik davr (mil. avval IV asr o'rtalari – mil. avval I asr).

Qadimgi Yunon musiqqa madaniyati haqidagi tasavvurlar arxiologik qazilmalardan topilgan buyumlar, qadimgi yozma manbalar, adabiyot yodgorliklari va mahsus musiqiy parchalar tahlilida shakllanib keldi. Qadimgi Yunon musiqasining rivoji tahminan miloddan burun 2 ming yillikdan tortib, milodimizning 5-asrigacha bo'lgan davrni qamrab oladi. Qadimgi Yunon musiqasining xalq qo'shig'i janrlari haqida ma'lumotlar mavjud. Xususan "georgiki"- dehqon qo'shiqlari, "epitalama" va "gimenei" - to'y qo'shiqlari, "trena" - yig'i qo'shiqlari, "embateriya"- safar qo'shiqlari, "skolii"-davra qo'shiqlari va yana bir qator qo'shiqlar turlari rivoj topdi. Bu esa o'z o'rnida folklor musiqasi ma'lum darajada rivojlanganining belgisidir.

Qadimgi Yunon musiqasida katta o'rin hudolar sharafiga ijro etilgan ko'shiqlar egalladi. Masalan, "peana" va "noma" Apallon, "parfenii" va "yupingi" Artemida, "difiramb", "iobakx" va "fallik" Dionis, "iula" Demetra,

"metroa" Kibela va yana bir qator hudolar sharafiga ijro etilgan qo'shiqlar ham mavjud edi. Eng qadimgi qurbonlik marosimi "spondey" sinkretik janr bo'lib musiqa va raqs harakatidan tarkib topadi. Ilk bor musiqani yaratgan va ijro etgan san'atkor "aed" bir vaqtning o'zida shoir, bastakor, qo'shiqchi va jo'rnavoz (torli asbob jo'rligida) vazifasini bajarar edi. Mashhur musiqachilar ijodi Qadimgi Yunon miflarida (Olimp, Orfey, Famirid, Marsiy) va epik poemalarida (Gomerning "Odisseya"sida Demodok va Femiy) bayon etilgan.

Qadimgi Yunon musiqasining arxaik davri quyidagi mashhur ismlar bilan bog'lanadi: Terpandr, Arxilox, Arion, Tirtey, Alkman, Stesixor, Sapfo, Alkey, Anakreont, Mimnerm, Ivika, Pindara, Vakxilid. Ko'rilayotgan davrda turli hil janrlar shakl topdi: avlodik va kifarodik nomlar (kifara va avlos jo'rligidagi qo'shiqlar), avletik va kifaristik nomlar (avlos va kifara yakkasoz cholg'u uchun pyesalar), elegiya, giporxema (raqs harakati bilan bezatilgan qo'shik), epinikiya va hokazolar.

Qadimgi Yunon musiqasining klassik davri tragediya va komediya janrlarining rivojini yetuk pallasini hisoblanadi. Buyuk tragiklar Esxil, Sofokl, Yevripid va komediyachi Aristofan o'z durdona asarlarida musiqaga muhim dramaturgik vazifani yuklaganlar. Ushbu davrda xor lirikasi vakillari va dramaturglar Timofey, Friniya, Kreks, Melanippida ijodida musiqa tilida novatorlik (ya'ni, tub) o'zgarishlar ro'y beradi.

Qadimgi Yunon musiqasi ellinistik davrda keng miqyosda O'rtadengiz yerlarida tarqab boradi. Qadimgi Yunon musiqasida ashula va cholg'u harfiy notalashtirish uslubi qulanilgan. Yunon musiqasi birovozli turida rivojlangan bo'lsada, ashula yo'lini cholg'u jo'rligini chiqarishda garmonik intervallar hosil bo'lgan. Qadimgi Yunonlarni lad tafakkuri asosi tetraxod rodlar edi: tovushlarning musiqiy aloqalari kvartani o'ziga hos tarkibi qamrovida anglangan.

Kadimgi Yunon musiqasi amaliyotida turli hil cholg'u asboblari keng qullanib kelingan: torli guruh – lira, kifara, forminga, kinir, barbiton, lirofeniks, sambika, spadiks, psalteriy, magadis, pektida, epigoniy, nabl; damli guruh – avlos turli hillari (bombiks, borim, kalam, gingr, niglar, elim), siringlar (bir-,ikki va ko'p trubali) va trub (salpinga,keras); urma guruh – timpan, sistr, kimval, krotal, psifir, roptr. Aleksandriyalik mexanik Ktesibiy (miloddan burun 3-2asrlar) birinchi suvli organ-gidravlos asbobini kashf etdi.

Qadimgi Yunonistonda musiqiy nazariya va musiqiy estetika sohalari rivoj etgan. Pifagor va pifagorchilar ilmiy darajada musiqani bir qator akustik qonuniyatlarini izohlab berdilar. Aristoksen ilmiy izlanishlarida interval va tovushqatorni empirik – eshitish hissiyotini o'rganib chiqadi. Musiqa nazariya

ilmidagi keyingi tadqiqotlarni Nikomax, K. Ptolemey (miloddimizning 1-2 asrlari), Aristid Kvintilian, Porfiriy, Allipiy (miloddimizning 3-4 asrlari). Musiqani etik konsepsiyasi ni bir qator antik olimlar o'rganib chiqdi, o'lar ichida Platon va Aristotel izlanishlari alohida etiborga loyiq.

Qadimgi Rim badiiy madaniyatining shaklanishi bevosita an'analar vorisligi (etrus., yunon, ellinistik) va Rim davlatining (miloddan avval 3-asr ohiridan, to miloddimizning 5-asrigacha) kengligi bilan bog'liq edi. Qadimgi Rim madaniyati nisbatan mustaqil ravishda rivojlangan bo'lib, musiqaga taaluqli ma'lumotlar juda kam. Bu davrlarda maishiy musiqiy-shoirona janrlar (tantanavor, to'yyona, davra, zikr kabi qo'shiqlar), xarbiy musiqqa (damli asbabrar rog va trubalarda ijro etilgan) hamda saliyeh va "arvaliyali aka-ukalar" aytimlari mashhur edi.

Miloddan avval 5-asrdan etiboran Rim davlatining Yunon san'atiga moslashuv harakati kuzatiladi (mifologik mavzularni qo'llash, ritorik maktablarida yunon tilida dars o'tish, san'at buyumlarini harid qilish). Yunoniston kabi Rimda ham poetik asarlarni (Goratsiy odalari, Vergiliy ekloglari, Ovidiy poemalari) tibiya va kifara asboblari jo'rligida ijro etish san'ati keng targ'ib qilindi. Yana bir qator cholg'ular keng qo'llanildi – arfa va lirani hilma-hil turlari, gidravlos, kimval va boshqalar. Pontamime teatri tarkibida yakkaxon-raqqosga jo'r bo'lgan xor hamda cholg'u asboblarning katta guruxi kelgusida cholg'u musiqqa sohasi rivojida muhim rol o'ynadi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. B.Madrimov "Musiqqa tarixi"
3. X.A.Trigulova "Xorijiy musiqqa adabiyoti"
4. G.Tursunova "Jaxon musiqqa tarixi"